



EOC
EUROASIAN
ONLINE
CONFERENCES



ENGLAND CONFERENCE

**INTERNATIONAL CONFERENCE ON
MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND
EDUCATION**



Google Scholar

zenodo

OpenAIRE

doi digital object
identifier

eoconf.com - from 2024



INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION: a collection scientific works of the International scientific conference – London, England, 2025. Issue 4

Languages of publication: Uzbek, English, Russian, German, Italian, Spanish

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference «**INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION**». Which took place in London , 2025.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.



**HO'JA AHMAD YASSAVIY VA UNING MEROSI****Saidalimova Muzayyana Baxtiyorjon qizi**

Qo'qon universititi Andijon Filiali

Tarix yo'nalishi 1- kurs talabasi

Email:marhovokoziyeva@ gmail.com

[Tel:+998 876081333](tel:+998876081333)

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xoja Ahmad Yassaviyning hayoti, ijodi va tasavvufiy tariqatiga oid muhim jihatlar o'rganilgan. Yassaviylik tariqati XII-asrda shakllangan va Markaziy Osiyoda keng tarqalgan ma'naviy harakat bo'lib, uning ta'siri turkiy xalqlarning madaniy va diniy hayotiga chuqur kirib brogan. Shuningdek, Xoja Yassaviyning Turkistondagi ziyoratgo'hi va bu majmuaning madaniy va tarixiy ahamiyati haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: Xoja Ahmad Yassaviy, tasavvuf, tariqat, yassaviylik, madaniyat, diniy meros, ziyoratgoh, Turkiston.

Аннотация: В данной статье изучены важные аспекты жизни, творчества и суфийской тарикатности Ходжи Ахмада Ясави. Тарикат Ясавийлик сформировался в XII веке и распространился в Центральной Азии как духовное движение, оказавшее глубокое влияние на культурную и религиозную жизнь тюркских народов.

Ключевые слова: Ходжа Ахмад Ясавий, тасаввуф, тарикат, ясавийлик, культура, религиозное наследие, Туркестан.

Abstract: This article explores significant aspects of the life, works, and Sufi tariqa of Khoja Ahmad Yassavi. The Yassaviylik tariqa was established in the 12th century and spread throughout Central Asia as a spiritual movement deeply influencing the cultural and religious life of Turkic peoples.

Keywords: Khoja Ahmad Yassavi, Sufism, tariqa, Yassaviylik, culture, religious heritage, Turkistan.

Kirish: Ahmad Yassaviy 1103-yilda Sarom (Sayram) qishlog'ida Shayx Ibrohim xonadonida dunyoga keladi. Keyinchalik u o'z ona yurtini asarlarida "Ul muborak Turkiston" deb tilga oladi. Yassaviy tug'ilganidan so'ng, ko'p o'tmay onasi – Muso Shayxning qizi Oysha xotun olamdan o'tadi. Yetti yoshida esa otasi vafot etadi. Kichik Ahmadning tarbiyasi opasi Gavhar Shahnoz zimmasiga tushadi.

Opasi bilan Yassi shahriga ko'chib o'tishgach, Ahmad dastlabki ta'limotni Yassida mashhur olim Shahobiddin Isfijobiydan oladi. So'ngra u yerdagi bir qator tolibi ilmlar kabi Arslon bobo qo'lida tarbiya va tahsil oladi. Aynan shu shaharda Yassaviy botin ilmi sirlarini mukammal o'zlashtiradi. O'sha zamonlarda Movarounnahrning ilm-ma'rifat markazlaridan bo'lgan Buxoroda ko'plab turkistonlik toliblar yig'ilishgan. Ustozi Arslon bobo ko'rsatmasi bilan Yassaviy ham Buxoroga yo'l oladi.





Buxoroda arab, fors tillarini o'rganish bilan bir qatorda, forsiyda yaratilgan tasavvufiy adabiyot bilan tanishadi. Xoja Abduxoliq G'ijduvoni, Abdulloh Baqriy, Xoja Hasan Andoqiylar bilan hamsuhbat va hammaslahat bo'lib, davrning eng peshqadam olimi va so'fiysi Shayx Hamadoniylarining muridlari qatoridan joy oladi. Shayx Hamadoniylardan suluk odoblarini o'rganadi, ilm-u saboqlaridan bahramand bo'ladi. Ahmadning o'zi "Ustoz Yusuf Hamadoniylar huzuriga 23 yoshida borganini va ul Hazratning tarbiyasiga noil bo'lg'onligini" aytadi. U o'z ustozining eng ishongan va e'tiborli xalifalaridan edi. Sharqshunos olim Orif Usmonning ma'lumotlariga ko'ra, Abdulholiq G'ijduvoniylar kunlardan bir kuni Yusuf Hamadoniylardan shogirdlarining taqdiri xaqida so'zlab berishni iltimos qilgan. Shunda ustoz "Mening asl halifalarim avval Ho'ja Abdullo Bakriy, so'ngra Ho'ja Xasan Andoqiylar, undan so'ng Xoja Ahmad Yassaviydir. Ho'ja Ahmad Yassaviy o'z navbati bilan halifalik qilganidan keyin bir oz vaqt o'tgach, o'z vatani Turkistonga ketadi. So'ngra uning o'rniga sen halifalik qilasan" – degan ekan. Voqealar ustoz Yusuf Hamadoniylar aytganidek sodir bo'lib, keyinchalik Buxorodan o'z yurti Yassiga qaytgan. Ahmad madrasa va hona qurdirib, o'z atrofiga ko'plab shogirdlarni to'playdi.

Fitratning "Ahmad Yassaviy" (1927) asarida Yassaviy Yassiga qaytgach, xalq orasida katta shuhrat topgani, yuzlab muridlarga unga ergashgani va uning ta'limoti Turkiston jamiyatining ma'naviy hayotiga kuchli ta'sir ko'rsatgani aytiladi. Yassaviy tariqati aynan shu davrda shakllandi. Uning hikmatlari, odob-axloq haqidagi darslari, eshon va muridlarga orqali Turkistonning ijtimoiy muhitida keng tarqaldi. Ahmad Yassaviy turkiy tilda tungan bir ishq xazinasini va irfon konini ochgan. Faqrnoma "Devoni hikmat"ning bir necha toshbosma va ba'zi qo'lyozmalarida muqaddima tarzida berilgan mustaqil risola. Uni M.F.Ko'pruli, K.Eraston Yassaviy vafotidan so'ng izdoshlaridan kimdir yozgan deb hisoblashsa, professor M. As'ad Jo'shon, A. Yilmaz, I. Yo'qut, A. G'uzal kabilarning xulosasi bo'yicha risola Ahmad Yassaviy tomonidan bitilgan. Yassaviy Yassiga qaytgach, uning faoliyati nafaqat tasavvufiy tariqat asoslarini mustahkamlash, balki keng xalq ommasini ongiga ma'naviy-axloqiy g'oyalarni singdirish bilan izohlanadi. Bu davr Xoja Ahmadning ijodiy yuksalish, hikmatlarining jamlanishi va ta'limotining mukammal shakllanish bosqichi hisoblanadi. U barpo ettirgan xonaqoh va madrasa nafaqat ruhiy tarbiya, balki ilmiy-ma'rifiy markaz vazifasini bajargan. Uning atrofida to'plangan muridlarga, shogirdlarga va izdoshlarga faol targ'ibotchilar sifatida Turkiston bo'ylab hikmatlarni tarqatganlar.

Yassaviy hikmatlarining asosiy mazmuni nafs tarbiyasi, tavba, kamtarlik, mahabbati ilohiy, axloqiy poklik, adolat va banda burchi kabi tushunchalarni o'z ichiga oladi. Hikmatlar xalq tilida — ya'ni turkiyda yaratilgani bois, keng qatlam tomonidan tez qabul qilindi hamda og'zaki an'ana shaklida asrlar davomida yashab keldi.





Yassaviyning ijodiy merosi mahalliy adabiy maktablar, jumladan, Navoiy, Bobur, Mashrab, Sulaymon Boqirg'oni, Lutfiy kabi adabiyot namoyandalari shakllanishiga kuchli ta'sir ko'rsatgan. Shuningdek, Yassaviy tariqati faqat adabiy-ma'naviy emas, balki ijtimoiy birlik va jamiyatni axloqiy boshqarish mexanizmi sifatida ham faoliyat ko'rsatgan.

Ahmad Yassaviy vafoti haqida turli rivoyatlar mavjud bo'lsa-da, ko'pchilik tarixiy manbalarda u XII asrning ikkinchi yarmida, Yassida (hozirgi Turkiston) vafot etgani qayd etiladi. Uning maqbarasi keyinchalik Amir Temur tomonidan bunyod ettirilgan bo'lib, bugun ham Markaziy Osiyoning eng muhim ziyoratgohlaridan biridir. Mazkur inshoot nafaqat me'moriy yodgorlik, balki butun Turkiston tasavvuf merosining timsoli sifatida qadrlanadi.

Xo'ja Ahmad Yassaviyning ziyoratgohi Turkiston (qadimiy nomi – Yassi) shahrida joylashgan bo'lib, u Markaziy Osiyoning eng qadimiy va eng ulug' ma'naviy markazlaridan biri hisoblanadi. Yassi IX–XII asrlarda turkiy xalqlar uchun muhim diniy, madaniy va savdo shahri sifatida ma'lum bo'lgan. Aynan shu muhitda Yassaviyning ta'limoti shakllanib, uning qabri atrofida keyinchalik katta ziyoratgoh vujudga kelgan. Xoja Ahmad Yassaviy vafot etganidan keyin uning maqbarasi hurmat bilan saqlangan, ammo XIV asrga kelib, uning qabri ustidagi inshoot katta ta'mirga muhtoj bo'lgan. 1397–1405 yillar oralig'ida buyuk sarkarda Amir Temur shaxsan Yassaviyning qabrini obod qilishni buyuradi va shu orqali hozirgi ko'rinishdagi ulkan me'moriy majmua barpo etiladi. Yassaviy maqbarasi asrlar davomida turkiy xalqlarning ma'naviy birlashuv nuqtasi bo'lib kelgan. Bu joyga faqat diniy ziyorat maqsadida emas, balki madaniy-ma'rifiy maqsadda ham tashrif buyurilgan. Yassaviy ta'limotiga is-hongan muridlar, shoirlar va ziyolilar bu yerda g'oyaviy birlik va ruhiy quvvat olgan. Shundan buyon Turkiston "Ulug' Ahmad markazi" sifatida minglab ziyoratchilarni jalb etib kelmoqda. Bugungi kunda Yassaviy ziyoratgoh majmuasi YuNESKO tomonidan jahon merosi sifatida e'tirof etilgan va hanuzgacha turkiy dunyodagi eng muqaddas va eng ulug' ziyorat joylaridan biri hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, Xo'ja Ahmad Yassaviy shaxsiyati, ta'limoti va tarixiy merosi turkiy dunyo ma'naviyatida o'chmas iz qoldirgan. Uning tasavvufiy qarashlari nafaqat diniy-ruhoniylar hayotni boyitgan, balki adabiyot, axloqiy tarbiya, davlat boshqaruvi va madaniy uyg'onish jarayonlariga ham kuchli ta'sir ko'rsatgan. Bugungi kunda Turkiston ziyoratgohi va Yassaviy merosi nafaqat diniy maskan sifatida, balki jahon sivilizatsiyasi miqyosida qadrlanayotgan tarixiy-madaniy meros sifatida ahamiyat kasb etmoqda. Uning hikmatlari, tariqat tamoyillari va ma'naviy qarashlari zamonaviy jamiyatning ruhiy tarbiyasida ham o'z o'rniga ega bo'lib qolmoqda. Xo'ja Ahmad Yassaviy inson qalbini poklash, haqiqatga yaqinlashtirish va jamiyatda birlik, adolat, mehr-oqibatni mustahkamlashni asosiy maqsad qilib qo'ygan mutafakkir sifatida tarixda o'chmas iz qoldirdi.





FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdullaev M. O'zbekiston tasavvuf tarixi - Toshkent. 2008.
2. Абдурауф Фитрат. Аҳмад Яссавий (1927)
<https://adabiyot.islamonline.uz/adabiyotshunoslik/1338-yassaviy.pdf>
3. Насафий (Евгений Ефимович Березиков). Хожа Аҳмад Яссавий. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1993. (Русчадан Маҳкам Маҳмуд таржимаси) <https://n.ziyouz.com/library/category/19-tasavvufga-oid-kitoblar?download=2455%3Aanasafiy-xoja-ahmad-yassaviy>
4. Абдурахмон Гўзал. Яссавий “фақрнома”си. -Тошкент: «Наврўз» нашриёти, 2014.
<https://n.ziyouz.com/books/adabiyotshunoslik/Abdurahmon%20Go'zal.%20Yassaviy%20Faqrnomasi.pdf>

